

## PAURLIFTING BILAN SHUG'ULLANISHDA EKTOMORF TANA STRUKTURASI OVQATLANISH STRATEGIYASI

Xodjayev Mansurbek Qobiljonovich  
Andijon davlat universiteti

**Kirish.** Trenirovka, to'g'ri ovqatlanish va qo'shimchalar-bu sportning asosidir.

Sportda yutuqlarga erishishning 4% ni trenirovkalar tashkil qilsa qolgan 96% qanday hosil bo'ladi?[ 1]

Diyeta-bu atletlarning har kuni o'ylab yurishi kerak bo'lgan zarur va muhim masalasidir. Tarkibi to'la qimmatli bo'lgan ovqatlanish ratsioni – hamma sport turlarida ham yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Nimani yesang, shunga yarasha harakat qila olasan. Ovqatlanish uchun stolga o'tirishdan oldin aynan hamma sport turidagi sportchilar o'zining trenirovka nagruzkasi harakterini qancha energiya sarflashini bilish va shu energiya miqdorini ovqatda tashkil qilishi lozim. Masalan: atletchilarga, shtangistlarga, kurashchilarga, hammasini oqsillarga (protein) uglevodlarga, yog'larga boy ovqatlanish ratsionida oziqlantirish darkor. Ularsiz biror natijani ta'minlash qiyin. Sportchi eng zamonaviy zallarda hamda eng ohirgi takomillashgan metodlarda shug'ullansin, meyorida oziqlanmasa muskullarda 100 % tiklanish bo'lmaydi, bundan ko'rinib turibdiki natija ham o'smaydi. [3,4]

Afsuski, bu fakt. Bu borada kimningdir omadi kelmasa ularni xardgeynerlar, ya'ni tabiatan omadsizlar, kam deyishadi. Ammo bu xolatni chuqurroq o'rganilsa, xardgeynerlar — sport bilan noto'g'ri, shunchaki shug'ullanuvchilar va tartibsiz ovqatlanuvchilar, nima to'g'ri kelsa shuni yeydigan, sport ozuqaviy qo'shimchalarini iste'mol kilmaydiganlar bulib chiqadilar. Ularning fikricha qo'shimchalar sog'lik uchun zarar emish, vaxolanki, organizm uchun proteinning akamiyati bekiyos bulib, uning yana bir nomi «hayot tashuvchi» deb ataladi. Xar bir sportchi aminokislotalarning organizmda xar birining o'z funksiyasi borligini va o'ziga xos axamiyatga egaligini bilishi lozim.

Zamonaviy paurlifting va sport ozuqa qo'shimchalari o'zaro chambarchas bog'lik. Muskullarning xajmini oshirishda protein, aminokislota, VSAA, kreatin, ko'pchilikka ma'lum bulgan vitamin va mikroelementlarning o'rni beqiyos. Ozuqa maxsulotlarining yetishmasligi muskullarning o'sishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi fanda aniq isbotlangan.

Bulgusi atlet ozuqaviy qo'shimchalarni qabul qilmasa bu sport turi bilan jiddiy shug'ullana olmaydi, balki yaxshisi bu sportni tark etgani o'zi uchun xam, sog'ligi uchun ham yaxshiroqdir. Yana shuni unutmangki, sport ozuqaviy qo'shimchalari ko'z ochib yumguncha ta'sir kilmaydi, xar qanday yangi maxsulotni organizm sekin-asta qabul qiladi. Shuning uchun xam ulardan foydalanish xam tezlik bilan amalga oshmaydi. Bu qoida ayniqsa sport qo'shimchalariga tegishli. Xatto, eng foydali xisoblangan oqsil zardobining samarasi xam tezlik bilan sezilmaydi. Shunday bo'lsada, bir oydan so'ng siz o'zingizda o'zgarishlarni xis qilasz. Ozuqaviy qo'shimchalarni iste'mol qilganingiz sari ularning foydasini xam kundan kunga yaqqolroq sezaverasz. Ozuqaviy qo'shimchalarni yil davomida uzluksiz qabul kilgan atletlarning muskullari xajmi xar oyda 2-3 kg ga ortganligi isbotlangan.[2]

**Tadqiqot maqsadi.** Tadqiqotning maqsadi paurliftingga ixtisoslashgan sportchilarning morfologik xolatini qiyosiy xarakteristikasini va turiga qarab tanlangan tana strukturalar orasidagi "masofani" aniqlash uchun somatik ko'rsatkichlar to'plamini o'tkazish va ektomorf

tip tana strukturasi antropometrik ko‘rsatkichlarini maxsus ovqatlanish strategiyasi orqali yutuqlarga erishishi mumkinligidan iborat.

Yuqorida keltiriladigan ma’lumotlarga ko‘ra ektomorflar aloxida ovqatlanish va qo‘shimchalar qabul qilish rejimini talab qiladi. Quyida treningda energiya miqdorini organizmda to‘g‘ri tashkil qilishdagi ovqatlanish va qushimchalar qabul qilish rejimini qo‘lladik. Bu ratsion 55—70 kg vaznli atlet uchun mo‘ljallangan, agar sizning vazningiz og‘irrok yoki yengilrok bo‘lsa, taomnomada 1 kg tana og‘irligiga 3 g protein, 5 g uglevod (50%), 1 g yog‘ (15%)ni tashkil etishi kerak.[3,4]. Tadqiqot natijalari va ularni muxokama qilish. Uch xil tana strukturalari bo‘yicha tekshirilgan sportchilar uchun o‘lchov natijalariga ko‘ra o‘rtacha antropometrik parametrlar, shu jumladan o‘rtacha standart o‘sish mezomorflar va ekto-mezomorflarda xisoblab chiqilgan. Ektomorflarda tananing umumiy va qisman o‘sish ko‘rsatkichlari uchchala somatiplarlararo farqlar solishtirildi, tana uzunligiga nisbatan tana vaznining o‘rtacha kattaligi ko‘rsatkichlari barqarorlashdi. Ektomorflar uchun  $TVN=169:2,8561=18,7$  dan  $TVN=167:2,7889=23,5$  gacha. Ekto-mezomorflarda tana vazni indeksi o‘rtacha og‘irligi ko‘rsatkichlari barqarorroq bo‘lib chiqdi: Ekto-mezomorf uchun  $TVN=172:2,9584=24,8$  dan,  $TVN=175:3,0625=26,1$  gacha. Mezomorflar uchun  $TVN=169:2,8561=22,8$  dan  $TVN=180:3,24=26,4$  gacha ko‘rsatkichlari barqaror yuqori bo‘lib chiqdi. Tana vazni va uzunligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taxlil qilish shuni ko‘rsatdiki, uchchala tana strukturalariga ovqatlanish strategiyasi va jismoniy faolligi tana vazniga va uzunligiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatganligini ko‘ramiz va ixtisoslashuvning xar uchchala turi uchun maqbul nisbat sifatida talqin etildi. Uzunlik o‘lchamlari bilan taqqoslanganda atrof o‘lchamlari sezilarli o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatadi. Gurux ichidagi o‘zgaruvchanlik shubxasiz yelka, ko‘krak, qo‘l, tos, sonlarda farqli o‘zgargan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, somatiplarning aylanma o‘lchamlari bir-biri bilan taqqoslanganda ektomorflarda sezilarli darajada bo‘lsa, mezomorf va ekto-mezomorflarda kattaroq farqlarda o‘zgarishni kuzatamiz. Tadqiqotlar natijasida sportchilarni tana strukturasi uchun maxsus ovqatlanish strategiyasi orqali antropometrik xususiyatlari to‘plami aniqlandi. Somatiplarning antropometrik ko‘rsatkichlarini guruxlararo taqqoslash uchchala tana strukturalari vakillari o‘rtasida sezilarli farqni aniqladi. Ushbu farqlarada ektomorflarda xam tana vazni o‘zgarishi, muskullarni bir-biriga proporsional rivojlana olishi mumkinligini, xamda ushbu tur vakillarining atletik gimnastika bilan shug‘ullanishda sportchilar tanasiga proporsional uyg‘unlik, xarakatlarning aniqligi va xarakatlarni aniq muvofiqlashtirish sifatlarini yuqori darajada rivojlantirish talablari qo‘yiladi.

Xulosalar” 1. Ektomorflar massa, tana uzunligi, ko‘krak aylanasi, qo‘llar va oyoqlarning antropometrik ko‘rsatkichlari maqbul darajada muvozanatli nisbatda bo‘la oladi.

2. Ekto-mezomorf va mezomorflar tanasining aloxida qismlarining kattaligi, kattaligining sezilarli o‘zgaruvchanligini ovqatlanish strategiyasi orqali sport xolatini yana xam yaxshilash imkoniyatlariga ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Эдвард Коннорс, Майкл Маккорн., Питер Гримковский, Тим Кимбер. Энциклопедия бодибилдинга.-М.:2000.
2. А. Воробьев. Анатомия сыли. М.:1990.
3. “Сила и красота” журналы.-М.: 1998.